



National and spiritual characteristics of loanwords in the English language

Raikhon JURAKULOVA¹

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025

Received in revised form

10 March 2025

Accepted 25 March 2025

Available online

25 April 2025

Keywords:

lexical borrowings,
nationality,
spirituality,
English language,
intercultural
communication.

ABSTRACT

This article explores the national and spiritual characteristics of lexical borrowings in the English language. The study analyzes the origins, semantic and stylistic shifts of borrowed words, and how these words are integrated into the cultural context of English-speaking societies. Borrowings are examined as linguistic reflections of intercultural communication, identity, and globalization.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4/S-pp390-394>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tiliga o'zlashmalarning milliy va ma'naviy xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'zlashma so'zlar,
milliylik,
ma'naviyat,
ingliz tili,
madaniyatlararo muloqot.

Mazkur maqolada ingliz tiliga kirib kelgan o'zlashma so'zlarning milliy va ma'naviy xususiyatlari tahlil qilingan, so'zlarning kelib chiqishi, semantik va stilistik o'zgarishlari, hamda ingliz jamiyati tomonidan qanday madaniy kontekstda qabul qilinishi o'rganiladi. O'zlashmalar orqali madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy tafakkur va global tillarning rivoji yoritib beriladi.

¹ PhD student, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.

Национальные и духовные особенности заимствований в английском языке

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

заимствованные слова,
национальность,
духовность,
английский язык,
межкультурная
коммуникация.

В данной статье рассматриваются национальные и духовные особенности заимствованных слов в английском языке. Анализируются их происхождение, семантические и стилистические изменения, а также культурный контекст восприятия в английском обществе. Заимствования представлены как лингвистическое отражение межкультурной коммуникации и глобализации.

KIRISH

Zamonaviy ingliz tili jahonning eng ko'p ishlatiladigan tillaridan biri sifatida turli tillardan, ayniqsa, lotin, yunon, fransuz, arab, hind va boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirgan. Har bir o'zlashma o'zida milliylik va ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. O'zlashgan so'zlar orqali ingliz tilining boyishi, uning xalqaro mavqei oshgani holda, bu jarayon ingliz xalqining madaniyati, dini, urf-odatlar va ijtimoiy hayotini ham aks ettiradi.

Bugungi globallashuv davrida tillararo almashinuv kuchaygani sababli, ingliz tilidagi o'zlashmalarni o'rganish faqat lingvistik emas, balki madaniyatshunoslik va tarix nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur mavzu nafaqat tilshunoslar, balki tarjimonlar, jurnalistlar va madaniyatshunoslar uchun ham dolzarbdir.

O'zlashma so'z (loanword) deganda bir tildan ikkinchi tilga turli sabablarga ko'ra (ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy) kirib kelgan va unga muayyan darajada moslashgan leksik birliklar tushuniladi. Bunday so'zlar til taraqqiyotining tabiiy qismi bo'lib, har qanday tirik til o'zlashtirish jarayonidan chetda qolmaydi. Ingliz tilida o'zlashmalar juda katta rol o'ynaydi. Taxminan 60–70 foiz ingliz lug'ati boshqa tillardan olingan. Bu holat ingliz tilining tarixiy taraqqiyoti, ko'p madaniyatlar bilan to'qnashgani va global tilga aylangani bilan bog'liq. Lingvistik jihatdan o'zlashmalar uch xil ko'rinishda bo'ladi:

– to'liq o'zlashgan so'zlar (phonetic and semantic adaptation): “restaurant” (fransuzcha);

– qisman o'zlashgan so'zlar (morfologik yoki semantik jihatdan): “yoga” (hindcha);

– begona unsurlarni saqlab qolgan so'zlar (exotic borrowings): “sunami” (yaponcha).

Ingliz tiliga o'zlashmalar tarixining bosqichlari:

• Ingliz tilining ilk bosqichlarida (5–7-asrlar) lotin tili asosiy manba bo'lgan. Rim imperiyasi va xristianlik ta'siri orqali lotincha so'zlar kirib keldi: *school, wine, wall, priest* kabi.

• 1066-yilda bo'lgan Norman istilosi ingliz tiliga katta hajmda fransuz tilidan o'zlashmalarni olib kirdi. Huquq, boshqaruv, adabiyot va san'at sohalarida fransuzcha so'zlar ustunlik qildi: *government, court, beauty, religion, justice*.

• XV–XVII asrlarda ilm-fan va adabiyotning ravnaqi tufayli ko'plab ilmiy atamalar yunon va lotin tillaridan kirib keldi: *philosophy, biology, radius, theatre, status*.

• Buyuk Britaniya imperiyasi kengaygan sari ingliz tiliga hind, arab, turk, yapon va boshqa tillardan ko'plab o'zlashmalar kirib keldi:

✓ Hind tilidan: *bungalow, pajamas, shampoo*;

✓ Arab tilidan: *algebra, alcohol, sugar*;

✓ Turk tilidan: *yogurt, kiosk, coffee*.

• XX–XXI asrlarda ingliz tiliga texnologiya, moda, madaniyat va internet orqali o'zlashmalar davom etdi. Ayniqsa, yaponcha (*anime, karaoke*), italyancha (*espresso, pizza*), koreyscha (*kimchi, K-pop*) so'zlar global madaniyat orqali tilga kirdi.

Ingliz tiliga o'zlashmalar quyidagi asosiy omillar ta'sirida kirib kelgan:

- Savdo-sotiq aloqalari
- Diniy ta'sirlar
- Ilm-fan va texnologiyalar rivoji
- Siyosiy va harbiy ekspansiyalar
- Madaniy almashinuv (kinofilm, musiqa, adabiyot, moda).

Har bir o'zlashma o'zida o'sha so'z olingan tilning ma'naviy va madaniy izlarini saqlaydi. Masalan:

- karma (hindcha) – diniy-falsafiy tushuncha;
- algebra (arabcha) – ilm-fanning musulmon davridagi rivojini ko'rsatadi;
- sushi (yaponcha) – milliy ovqat madaniyati namunasi.

Shuningdek, o'zlashmalar orqali ingliz tiliga boy madaniy konnotatsiyalar, qadriyatlar, ijtimoiy tushunchalar ham kirib kelgan. Tilning globallashuvi davom etar ekan, o'zlashmalar soni ortib bormoqda va ular orqali madaniy integratsiya kuchaymoqda. Ingliz tilida o'zlashmalarning milliy va ma'naviy izlari tilshunoslik uchun muhim tahlil obyekti bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tiliga kirib kelgan o'zlashma so'zlarning milliy va ma'naviy xususiyatlarini o'rganishda bir qator ilmiy va nazariy manbalar tahlil qilindi. Bu adabiyotlar tilshunoslik, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik sohalariga oid bo'lib, tadqiqotga chuqur ilmiy asos yaratadi. D. Crystalning "The Cambridge Encyclopedia of the English Language" asarida ingliz tilining zamonaviy rivojlanish bosqichlari, ayniqsa boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar bilan boyish jarayoni yoritilgan. Muallif ingliz tilining o'zlashmalarga ochiqqligi va bu so'zlarning madaniy ma'nolarini ham ko'rsatib o'tadi. R. Traskning "Language Change" asarida esa til o'zgarishlarining tarixiy va lingvistik sabablari o'rganiladi. O'zlashma so'zlarning shakl va ma'no jihatdan qanday o'zgarishi tahlil etilgan. Bu ishda o'zlashmalarning fonetik va semantik moslashuvini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qildi. J. Jenkins'ning "World Englishes" kitobi ingliz tilining xalqaro kontekstdagi o'zgarishlari, boshqa tillar bilan aloqalari va madaniy o'zlashuv jarayonlarini ochib beradi. Ushbu asar yordamida ingliz jamiyatida o'zlashma so'zlarning qanday qabul qilinishi va ular orqali qanday madaniy konnotatsiyalar shakllanishi o'rganildi. E. Haugen tomonidan yozilgan "The Analysis of Linguistic Borrowing" maqolasi esa o'zlashmalarni klassik lingvistik tahlil asosida tasniflaydi. U so'zlarning adaptatsiya, assimilyatsiya va integratsiya jarayonlarini ilmiy asosda bayon etadi. Shuningdek, S. Alimovning "Tillararo aloqa va lingvistik o'zlashuvlar" nomli o'zbek tilidagi asari mazkur mavzuni mahalliy kontekstda o'rganishda muhim o'rin tutdi [1-7]. Muallif o'zlashmalarning madaniy xususiyatlari, tilga kirib kelish sabablari va ularning funksional yuklamalarini yoritgan. Umuman olganda, bu adabiyotlar til va madaniyatning uzviy bog'liqligini, o'zlashmalarning semantik va ma'naviy o'zgarishlarini chuqur ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi lingvistik va madaniyatshunoslik metodlardan foydalanildi:

– tavsifiy metod (Descriptive method): Bu metod orqali ingliz tilida ishlatiladigan o'zlashma so'zlar yig'ildi, ularning fonetik, morfologik, semantik va stilistik xususiyatlari tasniflandi. Har bir so'z madaniy kontekstdagi ishlatilishi bilan birga tahlil qilindi.

– Qiyosiy-tahliliy metod (Comparative-analytical method): Ingliz tilidagi o'zlashmalar boshqa tillardan (masalan, arab, hind, yapon, ispan) olingan so'zlar bilan qiyoslandi va ularning ingliz tilidagi ma'no o'zgarishi, stereotiplashuvi yoki ma'naviy kengayishi o'rganildi.

– Konnotativ tahlil metodi: So'zlarning bevosita lug'aviy ma'nosi emas, balki ingliz jamiyati ongida shakllangan ma'naviy, madaniy, ijtimoiy konnotatsiyasi (yuklamasi) o'rganildi. Masalan, "karma" yoki "zen" kabi so'zlarning ruhiy-ma'naviy qadriyatlar bilan qanday bog'liq ekani tahlil qilindi.

– Sotsiolingvistik yondashuv: O'zlashmalarning ingliz tilidagi qabul qilinishi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'lab tahlil qilindi. Mazkur metod yordamida jamiyatda ayrim o'zlashmalarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllanishi sabablari o'rganildi.

– Korpus tahlili elementlari: Ingliz tilidagi internet-resurslar, ommaviy axborot vositalari va matnlardan o'zlashma so'zlarning real qo'llanilishi misollar asosida kuzatildi va tahlil qilindi. Ushbu usul yordamida ularning zamonaviy til oqimidagi o'rni aniqlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliylik bu xalqning o'ziga xos urf-odatlar, qadriyatlari, dunyoqarashi, diniy e'tiqodi va hayot tarzining ifodasidir. Ushbu xususiyatlar til orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, o'zlashgan so'zlarda u xalqning madaniy-milliy olamining izlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan, ingliz tiliga o'zlashgan hindcha karma, yaponcha sushi, italyancha opera kabi so'zlar aynan u millatning yashash tarzini, ovqatlanish madaniyatini yoki san'atini ifodalaydi. Bu so'zlar ingliz tilida faqat semantik mazmun emas, balki madaniy yuklama ham olib kiradi.

Ko'plab o'zlashmalar diniy yoki ma'naviy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bunday so'zlar ingliz tilining lug'aviy boyligiga yangi konseptlarni olib kirdi.

1-jadval.

So'zlarning kelib chiqishi

So'z	Kelib chiqishi	Ma'naviy mazmuni
Karma	Hind tili	Qayta tug'ilish va sabab-oqibat qonuni
Allah	Arab tili	Islom dinidagi yagona iloh nomi
Nirvana	Sanskrit	Butun istaklardan holi bo'lish holati
Jihad	Arab tili	Ruhiy kurash, ichki poklanish (ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi)
Shaman	Sibir/Uyg'ur	Ruhiy davolovchi, ruhiy dunyo bilan bog'lanish

Shunday qilib, bunday o'zlashmalar orqali ingliz tili global ma'naviy qadriyatlar bilan boyib borgan. O'zlashmalar ingliz tilida birgina lug'aviy birlik emas, balki boshqa xalqlarning butun dunyoqarashini anglatuvchi belgilar sifatida ham yashaydi. Misollar:

– *Siesta* (ispancha) – tushlikdan keyingi dam olish; bu ispan xalqining hayot tarzini ko'rsatadi.

– *Bonsai* (yaponcha) – miniatyura daraxt yetishtirish; tabiatga bo'lgan estetik munosabat belgisi.

– *Tatami* (yaponcha) – an'anaviy to'shama; milliy me'morchilik madaniyatini ifodalaydi.

– *Czar* (ruscha) – avtoritar boshqaruv sinonimi sifatida ingliz tilida ishlatiladi.

– *Karma yoga* – hind falsafasi asosida harakatlar orqali ruhiy poklanish tushunchasi.

Ko'plab o'zlashgan so'zlar til egasi bo'lmagan madaniyatlarda haqida muayyan stereotiplar shakllanishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, "jihad" so'zining faqat ekstremizm bilan bog'lanib talqin qilinishi – bu so'zning asl diniy-ma'naviy mazmunidan yiroqlashish holatidir.

Boshqa tomondan, o'zlashmalar orqali ingliz tilida turli millatlarning *identiteti* – ya'ni o'zini anglash va tanitish shakllanadi. Masalan, *sari, kimono, ramadan, tzatziki* kabi so'zlar ingliz tilida o'z millatini tanituvchi so'z sifatida yashaydi.

O'zlashmalar nafaqat leksik darajada, balki stilistik va konnotativ (yordamchi ma'no) jihatdan ham tahlil etilishi zarur. Masalan:

– *Guru* – hind tilidan olingan, aslida diniy murabbiy, lekin ingliz tilida "mutaxassis" yoki "yetakchi" ma'nosida ishlatiladi;

– *Kamikadze* – yapon tilida "ilohiy shamol" degan ma'noni bildirsa-da, ingliz tilida ekstremal va xatarli harakat belgisi sifatida ishlatiladi.

Shunday qilib, ushbu jihatlar o'zlashmalar semantik o'zgarishlarga uchrashi hamda ma'naviy jihatdan kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Tahlillarga ko'ra, har bir o'zlashma o'zida muayyan xalqning tarixini, diniy-falsafiy qarashini va madaniyatini olib kiradi. Ingliz tili bugun global aloqa vositasi sifatida nafaqat so'zlarni, balki ularning orqasidagi qadriyatlarni ham o'zlashtirgan.

XULOSA

Ingliz tiliga kirib kelgan o'zlashma so'zlar nafaqat lingvistik hodisa, balki madaniy va ma'naviy jarayonning natijasi sifatida qaralishi lozim. Maqolada o'zlashmalar tipologiyasi, ularning semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek ingliz jamiyatida qanday ma'naviy mazmun bilan qabul qilinishi har tomonlama o'rganildi. O'zlashgan so'zlar orqali boshqa xalqlarning diniy e'tiqodi, urf-odati, turmush tarzi va madaniy qadriyatlari ingliz tilida o'z aksini topgan. Ushbu holat ingliz tilining global xususiyatini, ya'ni boshqa tillarga nisbatan ochiqqligini isbotlaydi. Ayni paytda ayrim o'zlashmalar ingliz tilida semantik buzilish yoki stereotiplashuvga ham uchragan. Bu esa tilshunoslik nuqtai nazaridan ularni tahlil qilishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tiliga o'zlashmalar orqali boshqa madaniyatlarda faqat so'zlar bilan emas, balki o'z dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari va identiteti bilan kirib kelmoqda. Bunday tilshunoslik asosidagi yondashuvlar madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va tillar taraqqiyotini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crystal, D. (2023). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
2. Trask, R. L. (2021). Language Change. Routledge.
3. Jenkins, J. (2024). World Englishes: A Resource Book for Students. Routledge.
4. Haugen, E. (2020). The Analysis of Linguistic Borrowing. *Language*, 26(2), 210–231.
5. Fishman, J. A. (2021). Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective. *Multilingual Matters*.
6. Alimov S. (2023). Tillararo aloqa va lingvistik o'zlashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Karimov, M. (2020). Ingliz tilidagi o'zlashma so'zlarning madaniy-ma'naviy xususiyatlari. *Filologiya Ilmlari jurnali*, №2.